

XORAZM SHEVALARIDA TO‘Y MAROSIMINI IFODALOVCHI ETNOGRAFIK ZAMOLAR

Ruzmetova Ilmira Kenjaboy qizi,
Urganch davlat universiteti Lingvistika
(o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm shevalariga xos bo‘lgan to‘y marosim ma’nosini anglatuvchi etnografik zamol xususida so‘z boradi. Mavzu asosida misollar keltirilib ularning izohi, qay jarayonda qo‘llanilishi, so‘zning kelib chiqish tarixi haqida fikrlar ochib beriladi. Keltirib o‘tilgan har bir fikr o‘z misoli bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: korpa imma, un elar, qatlama pishar, sunnat toyi, kelin toyi, lachak toyi, payg‘ambar yashi to‘yi, beshik to‘yi, yubiley, patxa toyi.

Etnografizm – muayyan xalqning milliy madaniyati, an‘analari, urf-odatlarini, diniy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarning nomlari. Bunday lug‘aviy birliklar ma’lum bir etnosning boshqalardan farqlanib turuvchi asosiy xususiyatlarini aks ettiradi va tildagi boshqa lug‘aviy vositalardan milliylikni ifodalashi jihatidan ajralib turadi. Har bir xalqning o‘ziga xos milliylikni ifodalovchi lug‘aviy birliklarning bir qismini dialektal leksika tashkil qiladi. Dialektal leksika ma’lum hududga xosligi, mahalliy hayotni aks ettirishi bilan etnografik zamolga o‘xshash bo‘lsa-da, dialektal leksikaning ma’lum bir qismigina etnografizm bo‘la oladi. Xalqning o‘tmishi, buguni, hayot tarzi, madaniyati, ijtimoiy munosabatlari aynan dialektal leksikada o‘z ifodasini topadi. Ma’lum bir hududda yashovchilar nutqida mavjud bo‘lib, inson faoliyatining mahsuli bo‘lgan tushunchalarning mahalliy nomlari dialektal leksikani tashkil etadi. Adabiy tildan farqli ravishda, dialektizmlarning aksariyat qismi sinonimlarga ega emas. Ular adabiy tildan fonetik, leksik, grammatik jihatdan farqlanadi.

Xorazm etnografik leksikasi, umuman, o‘zbek tilining etnografik leksikasi hududiy jihatdan to‘la tadqiq qilinmagan. Bu sohani to‘la tadqiq qilish xalq tarixining hamda til tarixining noaniq va mavhum tomonlarini ochishga yordam beradi. Xorazmda ham turli millat vakillari yashaganligi bois ularning tillarida ham o‘ziga xos nomushtarak tomonlar mavjud. Bu holat ularning etnografik leksikasida ham ko‘zga tashlanadi.

Biz ushbu maqolamizda Xorazm shevalaridagi etnografik zamolarning mavzuiy guruhlari, xususan, to‘y marosimini ifodalovchi etnografik zamol haqida to‘xtalamiz.

Etnografiya, asosan, maishiy hayot, oilaviy turmush jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Etnografik leksika inson hayotining barcha bosqichlarini, turmush tarzini, nima bilan shug'ullanishini, qanday hayot kechirishini, umuman insonga xos bo'lgan barcha odatlarni, ular bilan bog'liq bo'lgan va ularga ta'sir qiluvchi faktorlarni o'z ichiga oladi. Etnografik atamalar leksik birlik sifatida nimanidir ataydi, ko'rsatadi. Etnografik atamalar – etnografizmlar xalq hayoti bilan chambarchas bog'liqligi uchun inson shug'ullanuvchi barcha sohalarda uchraydi va shu sababli tilshunoslik fanining deyarli barcha sohalari bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra Xorazm shevalaridagi etnografizmlarni turli xil ko'rinishga ega bo'lganligi va turlicha leksik ma'no ifodalanishiga qarab bir necha mavzuiy guruhlariga ajratib o'rganishni lozim topdik:

1. Inson tug'ilishi va bola tarbiyasi bilan bog'liq etnografizmlar.
2. To'y marosimi bilan bog'liq etnografizmlar.
3. Inson vafoti bilan bog'liq etnografizmlar.
4. Kundalik ro'zg'or asboblari nomlarini ifodalovchi etnografizmlar.
5. Milliy kiyim-kechaklar va taqinchoqlar nomlarini bildiruvchi etnografizmlar.
6. Milliy taom nomlarini ifodalovchi etnografizmlar.
7. Bolalar kasalligi nomlarini ifodalovchi etnografizmlar.
8. Yigit-qizlar va milliy sport o'yinlari nomlari.
9. Yer-suv va kasb-hunarga oid etnografizmlar.
 10. Irim - sirimlarni ifodalovchi etnografizmlar.
 11. Diniy urf-odatlarini bildiruvchi etnografizmlar.
 12. Turli xil bayram va sayillarni ifodalovchi etnografizmlar.
 13. Kishi ismlari bilan bog'liq etnografizmlar.

Mana shu mavzuiy guruhlar ichida to'y marosimini ifodalovchi etnografizmlar alohida o'rinni tashkil qiladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati o'zbek shevalari, xususan, o'g'uz shevalarida uchraydigan ko'pgina etnografizmlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning ekvivalenti yoki boshqacha shaklda ko'rinishi boshqa sheva vakillari nutqida uchramaydi. Ijtimoiy hayotga kirib kelgan har bir yangi hodisa ma'lum bir so'z-atama va istiloh bilan ifodalanadi.

Xalq urf-odatlarini, jumladan, Xorazm xalqi urf-odatlarini juda qadimiy bo'lib, uzoq o'tmishdan darak beradi.

Rus tilshunosi I.V.Stebleva va S.E.Malovlarning e'tirof etishicha, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklariga mansub bitiktoshlarning birida shunday yozuv bo'lgan: «Boy erdim, a'yonim, yilqim sonsiz edi. Inim yetti, o'glim - uch, qizim-uch erdi. O'g'limni uylatdim, qizlarimni qalinsiz bartim». Bu manbadan ko'rinadiki,

o'zbek xalqi urf-odatlarining shakllanishi uzoq tarixiy-tadrijiy jarayonni o'z ichiga oladi.

Xorazm sheva vakillari nutqida uchraydigan so'z-atamalar ham bundan mustasno emas. Misol uchun, *korpa imma* – ko'rpa-to'shak qavish marosimi; *un elar* - to'y boshlanganidan darak beruvchi marosim; *qatlama pishar* - qozon boshida pul tashlab qatlama olish odati.

Shunga o'xshash etnografik dialektizmlar borki, ularning kelib chiqishi xalq tarixi bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek xalqi o'z hayotida bo'ladigan har bir quvonchli voqeani o'z nomi bilan atab, marosim sifatida nishonlagan. Jumladan, *sunnat toyi*, *kelin toyi*, *lachak toyi*, *payg'ambar yashi to'yi*, *beshek to'y*, *yubiley*, *pata://patxa toyi* kabilardir. To'y marosimlarini ifodalovchi etnografizmlar o'g'uz shevalarida anchagina bo'lib, shevalar leksikasida alohida qatlamni tashkil etadi.

Umuman, Xorazm to'ylari boshqa hududlarda yashovchi o'zbeklarning to'ylaridan ko'pgina rasm-rusumlarni o'tkazish tartibi bilan farq qiladi. Hatto ayrim tuman va qishloqdar aholisining to'y marosimi leksikasida ko'zga ko'rinarli farqlar mavjud. Misol uchun *eshik achar*, *dapalashma*, *ot aylantirish* kabi urf-odatlar o'g'uz shevalariga xos bo'lsa, *burundiq ena*, *tuxumbash//tappay* kabi urf-odat nomlari qipchoq shevalariga xosdir. Xorazm shevalarida shunday etnografik birliklar borki, ular shu yerda yashovchi o'g'uz-qipchoq sheva vakillari uchun mushtarakdir. Masalan: *qulliq aytirish* - yanga belbog'ni yecha olmasa qulluq aytish odati; *duvaq achish//tuvag achish* - qozon qopqog'ini ochish uchun sovg'a berish odati. Keltirilgan misollar asosan, Xorazmda o'g'uz shevalarida gapiruvchi aholi shevalariga xosdir. Bundan tashqari urf-odatlarni ifodalovchi etnografizmlar qipchoq sheva guruhidan farq qiladi yoki boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi:

o'g'uz	qipchoq	adabiy orfografik
jini qashti	Chopchima, shortak	To'y boshlanmasdan oldin qozon boshida oshpazlarning uyushtiradigan ziyofati
gi:t	juzna	quda tarafga bosh-oyoq sarpo qilish
gali:n	kelin	kelin
yenga	yanga	yanga
biqcha	bo'xcha	bo'xcha
Belvag'	belbau	belbog'
giyav	kuyav	kuyov
gengash	kengash	maslahat oshi
toyliq	to'yana	to'yona
gali:n rommal	hashiya romal	tevaragiga chiziq tortilgan ro'mol
manglaycha	peshanaban	durracha, peshonaga bog'lanadigan ro'mol
qi:z yenglar	qiz jinar	qiz bazmi

Etnotrafizmlarning ko'pchiligi adabiy tilda ham shu shaklda, ba'zan ayrim fonetik farqlarga uchragan holda uchraydi. Masalan: *savchi* - sovchi, *kelin* - kelin, *kuyavjora* — kuyovjo'ra, *patya toy* - fotiha to'yi, *kelin salam* -kelin salomi, *yanga* — yanga kabi.

Xorazm shevalarida yana shunday etnografizmlar borki, ular faqat yerli aholi uchungina tushunarlidir: *taq jinar*, *kelin borak* kabi.

Bundan tashqari Hazoraspning Sharlovuq pristanida, Urganch tumanining Cholish va Bekobod qishloqlarida, Boshqirshix qishlog'ining ko'1 qismida, Gurlan tumanining Chinobod posyolkalarida qisman qozoqlar ham istiqomat qiladi. Yuqoridagi millat vakillarining aralash holda yashashlari ularning yashashlarida sezilarli holatlarni yuzaga keltirgan. Bu holatlarning ko'pchiligi, asosan, ularning tillarida ozmi-ko'pmi mushtarakliklarni yuzaga keltirgan.

Bu mushtarakliklar ularning tillarida aks etib, bu xalqdar qadimdan madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqada bo'lganidan dalolat beradi.

Xorazm etnografik leksikasida yana shunday o'ziga xos terminlar borki, ular faqat shu yerda yashovchi aholi tiliga xos bo'lib, keng ma'noda qo'llanadi. Masalan, *popak//popak puli* - bolani xatna qilganda sartarosh kesilgan qismni uy egasiga berishdan oldin pul oladi; *gashir tuvrashma* - bu ham o'ziga xos marosim bo'lib, to'ydan bir kun oldin faqat qo'shnilariga aytib o'tkaziladi. Bundan tashqari *tanga sachuv*, *so'zilish*, *ong ayag' bilan kirish* kabi urf-odatlar borki, ularni mazkur sheva vakillari tilida bir so'z yoki so'z birikmasi bilan ataladigan maxsus leksemasi yo'q. Shuning uchun bunday tushuncha ifodalaydigan birikmalarni gap shaklidagi etnografizmlar deyish mumkin.

Umuman olganda, Xorazm shevalaridagi etnografizmlar turli mavzuiy guruhlariga mansub bo'lib, ular orasida to'y marosimlarini ifodalovchi etnografizmlar alohida o'rinni tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий лугати. –Урганч, 1999.*
2. *Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли лугати. –Т.: Фан, 1991.*
3. *Мирзаев Н. Ўзбек шеваларининг этнографик лексикаси. НД. –Т., 1971.*
4. *Носиров Ш. Шевалар лексикасининг соҳалар бўйича группалари // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент, 1991.*
5. *Саримсоқов Б. Оилавий маиший маросимлар фольклори. // Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.*